

## TOVUQ EYMERIOZINING KIMYOPROFILAKTIKASIDA SAMARALI EYMERIOSTATIKLARNI ANIQLASH.

*Xo'jaxonova Moxinur Farxodjon qizi*  
Samarqand davlat veterinariya meditsinasi,  
chorvachilik va biotexnologiyalar Universtiteti  
Toshkent filiali talabasi

*G'oyipova Mo'tabar Ergasheva*  
Samarqand davlat veterinariya meditsinasi,  
chorvachilik va biotexnologiyalar Universtiteti  
Toshkent filiali v.f.b.f.d., dotsent

*Xo'jaxonov Shoxruzxon Idirisxo'ja o'g'li*  
Samarqand davlat veterinariya meditsinasi,  
chorvachilik va biotexnologiyalar Universtiteti  
Toshkent filiali mustaqil izlanuvchisi

**Annotatsiya.** Maqolada asosan broyler jo'jalari orasida ko'p uchraydigan eymerioz kasalligini oldini olish uchun o'tkaziladigan profilaktik tadbirlar va foydalaniladigan eymeriostatiklarning samaradorlik ko'rsatkichlarini aniqlashga oid tadqiqot natijalari bayon qilingan.

**Kalit so'zlar:** eymerioz, Toltroks-2,5%, Amprovet 25%, ROSS-308, zoogigienik, diagnoz, eymeriostatik.

**Аннотация.** В статье преимущественно изложены результаты исследований по профилактическим мерам предупреждения заболевания эймериозом, распространённым среди цыплят-бройлеров, и определение показателей эффективности применяемых эймериостатиков.

**Ключевые слова:** эймериоз, Толтрокс-2,5%, Ампровет 25%, РОСС-308, зоогигиенический, диагностика, эймериостатик.

**Annotation.** The article mainly describes the results of the research on preventive measures to prevent the disease of eimeriosis, which is common among broiler chickens, and the determination of the efficiency indicators of the eimeriostatics used.

**Keywords:** eimeriosis, Toltrox-2.5%, Amprovet 25%, ROSS-308, zoohygienic, diagnosis, eimeriostatic.

Mavzuning dolzarbligi. Respublikamiz hududida faoliyat yuritayotgan mavjud parrandachilik xo'jaliklarida sezilarli darajadagi iqtisodiy zarar yuqumli va invazion kasalliklar shu bilan bir qatorda parrandalarni asrash va oziqlantirish bilan bog'liq kamchilik va muammolar oqibatida sodir etilmoqda. Bu borada parrandalarni sog'lom asrab o'stirish va mahsuldorligini oshirish soha mutahassislari oldidagi muhim vazifalardan biri bo'lib hisoblanadi. Mazkur soha bilan shug'ullanuvchi hissadorlik jamiyatlari, fermer, dehqon va shaxsiy

yordamchi xo'jaliklarda parvarishlanayotgan yosh jo'jalar orasida doimiy ravishda eymeriozga chalinish holatlari uchrab kelmoqda. Qator parrandachilik xo'jaliklarida eymerioz og'ir asoratlarni paydo qilmoqda hamda eymerioz invaziyasi bilan gipovitaminozli aralash shakllari ham uchrab turibdi. Tovuq eymeriozi keng tarqalgan invazion kasalliklardan biri bo'lib, parrandalarni pol ba'zan er, hamda turli almashinmaydigan to'shamalarda asralganda yosh va o'suvchi jo'jalar hamda tuxumdor tovuqlar orasida ko'p uchraydi. Asosan 2-3 oylikkacha bo'lgan jo'jalar eymerioz bilan kasallanish darajasi 20-80 % xatto 100% ni ham tashkil etadi. Tovuq eymeriozi oqibatida kelib chiqadigan iqtisodiy zarar katta bo'lib, kasallanib sog'aygan tovuqlar kechikib tuxumga kiradi va mahsulot birligiga harajat sarfi ortadi. Eymerioz oqibatida hazmlanish jarayoni buzilib, parrandalarning rezistentlik darajasi pasayishi natijasida har xil yuqumli va invazion kasalliklarga tez beriluvchan bo'lib qoladi. YUqorida ta'kidlanganidek jo'jalarning ko'plab o'lishi, veterinariya harajatlarining ortishi, mahsuldorlik va go'sht sifatining pasayib ketishi xo'jalikka katta iqtisodiy zarar keltirmoqda. Tovuq eymeriozini oldini olish, ularga aniq diagnoz qo'yish, davolash hamda qarshi kurashishni veterinariya amaliyotiga keng tadbiiq etish soha mutaxassislari oldida turgan dolzarb muammolardan biri bo'lib qolmoqda.

Tadqiqotning material va metodlari. Tadqiqotlar jarayonidagi profilaktika tadbirlari Farg'ona viloyati Beshariq tumani "SOBIRTEPA PARRANDA" MCHJ fermer xo'jaligida o'stirilayotgan broyler jo'jalari orasida eymerioz kasalligini oldini olish hamda davolashda Toltroks-2,5% va Amprovet 25% eymeriostatiklarining ta'sir ko'rsatkichlari aniqlandi.

Foydalanilgan eymeriostatiklar: - Toltroks-2,5% – tarkibi toltrazuril, qo'llanilishi- og'iz orqali suv bilan berish uchun. 1 ml preparat 1 litr suvda eritilib, 3-5 kun davomida beriladi. UZBIOKOMBINAT mahsuloti.

- Amprovet 25% – tarkibi amprolium, qo'llanilishi-og'iz orqali suv bilan ichiriladi. 2 gr preparat 1 litr suvda eritilib, 5-7 kun davomida beriladi. UZBIOKOMBINAT mahsuloti.

Xo'jalik sharoitida ushbu mavzuda o'tkaziladigan ilmiy tadqiqot ishlarini bajarish uchun dastlab «ROSS-308» zotiga mansub 30 bosh bir kunlik broyler jo'jalari olindi. Ular kasallik qo'zg'atuvchilarini yuqtirish ehtimolidan toza joylarda o'stirilib 5 kunligida 3 ta guruhga bo'lib tirik vaznlari o'lchandi, ular orasidagi farq +/- 7 grammni tashkil etdi.

Tadqiqot guruhlaridagi jo'jalar xo'jalik sharoitida asralib, birinchi guruh jo'jalariga 5 kun davomida Toltroks-2,5% eymeriostatigi 1 ml + 1 litr suvga aralastirilib berildi. Ikkinchi guruh jo'jalariga esa 7 kun davomida Amprovet 25 % eymeriostatigi 0,5 gr + 1 litr suvga aralastirilib berildi. Uchunchi guruh esa nazorat guruhi sifatida xizmat qilib, xo'jalik usulida asraldi.

Birinchi tajriba guruhiga Toltroks-2,5% eymeriostatigi qo'llanilganda jo'jalarning saqlanuvchanlik darajasi 100 % ni, tirik vaznining o'sishi esa 88,2 % ni tashkil qildi.

Ikkinchi tajriba guruhiga esa Amprovet 25% eymeriostatigi qo'llanilganda jo'jalarning saqlanuvchanlik darajasi 100 % ni, tirik vaznining o'sishi esa 77,2 % ni tashkil qildi.

Uchinchi nazorat guruhidagi jo'jalar orasida eymerioz qayd etilib, kasallikning asoratli klinik belgilari va o'lim xolatlari kuzatildi. Tajriba yakunida ushbu guruxdagi jo'jalarning saqlanuvchanlik darajasi 30 % ni, tirik vaznining ortishi esa 45,4 % ni tashkil qildi.

“Farg‘ona viloyati Beshariq tumani “SOBIRTEPA PARRANDA” MCHJ fermer xo‘jaligida eymeriozni kimyoprofilaktikasida qo‘llanilgan eymeriostatiklarning samaradorlik ko‘rsatkichlari

T/r	Guruhlar nomi	Preparatlar nomi	Dozasi va qo'llash uslubi	Jo'jalar bosh soni	Saqlanuvchanlik (bosh hisobida)	Saqlanuvchanlik (% hisobida)
1	Tajriba	Toltroks-2,5%	1 ml-1 litr suv bilan 3 kun	10	10	100 %
2	Tajriba	Amprovet 25%	2 gr – 1litr suv bilan 7 kun	10	10	100 %
3	Nazorat	-	-	10	3	30 %

Shunday qilib, birinchi tajriba guruhi parrandalarining saqlanuvchanlik darajasi 100 % ni tashkil qilib, eymeriostatik olmagan nazorat guruhiga nisbatan 70 % yuqori natijaga erishilgan bo'lsa, ikkinchi tajriba guruhida ham bu ko'rsatikich 100 % ni tashkil etib, eymeriostatik olmagan nazorat guruhiga nisbatan 70 % yuqori natijaga erishildi. Toltroks-2,5% va Amprovet 25% eymeriostatiklaridan foydalanilganda xar ikki tajriba guruhida ham 100% natijaga erishilgan bo'lsada, Toltroks-2,5% eymeriostatigi qo'llanilgan tajriba guruhi jo'jalari tirik vaznining ortishida Amprovet25% eymeriostatigi foydalanilgan tajriba guruhiga nisbatan 11% yuqori natija qayd etildi.

Xulosalar. Parrandachilik xo'jaliklarida jo'jalarni zoogigienik talablarga mos keladigan binolarda saqlash, oziqlantirish sifatini yaxshilash va sanitariya talablarini bajarish eymerioz kasalligini kelib chiqishini oldini olishda muhim vazifalardan hisoblanadi.

- Toltroks-2,5% eymeriostatigini ishlab chiqarish sharoitida parrandalarning eymerioz kasalligini profilaktikasida qo'llaganda jo'jalarning saqlanuvchanlik darajasi 100 % ko'rsatikichda qayd etildi,

-shuni takidlash joizki, Toltroks-2,5% eymeriostatigi jo'jalarning saqlanuvchanlik darajasini oshiribgina qolmasdan, ularning tirik vaznini ortishi, va meyorda o'sib rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatganligini inobatga olib, ushbu muolajani parrandachilik xo'jaliklarida kasallikning oldini olish va davolash maqsadida qo'llash tavsiya etiladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. Bakirov B.B., Ro'ziqulov N.B. va boshqalar "Hayvonlar kasalliklari" (ma'lumotnoma) 2015 yil.
2. Bozorov X.K., A.Xo'jamshukurov., X.Esonov. Tovuqlar kolibakteriozi va pullorozini davolash hamda oldini olishda yangi antibiotiklarning samaradorligi. J. — Zooveterinariya №4. 2012 yil. 12-13 bet.
3. Bo'taeva I.M., Salimov H.S., Davlatov R.B. On The Diagnosis Of Mixed Bacterial Infections Of Birds International Journal of Advanced Science and Technology Vol. 29, No. 9s, (2020), pp. 2308-2315
4. Davlatov R.B., Ibragimov D. Jo'jalarning eymerioz va kolibakterioz kasalliklarining assotsiativ kechishi va profilaktika chora tadbirlari. Sam MI iqtidorli yoshlarning ilmiy ishlar to'plami. Samarqand 2006 yil.
5. Davlatov R.B., Salimov X.S., Xo'djamshukurov A.N. "Parrandalar kasalliklari", O'quv qo'llanma, Samarqand-2018.
6. Davlatov R.B., Nasimov Sh.N., Niyozov X.B., Jabborov Sh.A., Xo'djamshukurov Sh.A., Safarov X.A. "Parranda kasalliklarini profilaktikasi va davolash bo'yicha TAVSIYALAR" Toshkent 2019 yil.
7. Davlatov R.B. Eymerioz kur yego assotsiatsiya s kolibakteriozom v uslovyax Uzbekistana. Avtoreferat dissert. na soiskanie uch. step.dokt.vet.nauk. Samarqand 2008 y.
8. Davlatov R.B., Ibragimov D. Assotsirovannyye formy techeniya eymeriozov ptis s kolibakteriozom. Veterinariya sohasi uchun dori-darmonlar yaratish, sintez qilish va ishlab chiqarish muammolari. Uchinchi Respublika ilmiy amaliy konferensiya matnining to'plami. O'zVITI. Samarqand. 2004.
9. Salimov X.S., Qambarov A.A. "Epizootologiya", Darslik, Toshkent 2016 yil.
10. Qo'shimcha adabiyotlar
11. Худжамшукуров, А. Н. (2021). ТОВУҚ АСКАРИДИОЗИДА АСКАЗИН АНТИГЕЛЬМИНТИГИНИ ҚЎЛЛАШ НАТИЖАЛАРИ. *Интернаука*, (8-3), 44-46.
12. Nurmatovich, K. A., & Ogli, K. S. I. (2021). Effects of drugs on blood indicators in mixing chicken eimeriosis and pullorosis. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 11(5), 615-617.
13. Махамдалиева, М. У., Абдухалилова, Г. И., & Хо'jaxonov, S. I. (2023). BRUTSELLYOZ VA UNING LABORATORIYA DIAGNOSTIKASI. *INNOVATIVE DEVELOPMENTS AND RESEARCH IN EDUCATION*, 2(15), 41-47.
14. Давлатов, Р. Б. (2023). ТОВУҚ КОЛИБАКТЕРИОЗИ (АДАБИЁТЛАР ШАРХИ). *INNOVATION IN THE MODERN EDUCATION SYSTEM*, 3(26), 107-111.
15. Давлатов, Р. Б., & Бердиев, Х. Р. (2021). ТОВУҚ КОЛИБАКТЕРИОЗИНИНГ КИМЁПРОФИЛАКТИКАСИДА ОФЛОСАННИНГ САМАРАДОРЛИГИ. *Вестник Ветеринарии и Животноводства*, 1(1).

16. Бердиев, Х. Р., & Давлатов, Р. Б. (2021). Эффективность Enrovit-O при химической профилактике колибактериоза цыплят.
17. Berdiyevich, D. R. (2023). METHODS OF DIAGNOSIS OF CHICKEN COLIBACTERIOSIS. *AGROBIOTEXNOLOGIYA VA VETERINARIYA TIBBIYOTI ILMIIY JURNALI*, 2(4), 9-13.
18. G'oyipova, M. T. E., Xo'jaxonov, S., & Avliyoqulov, M. (2022). VETERINARIYA SOHASINING CHORVACHILIKNI RIVOJLANTIRISHDAGI O'RNI VA TAMOYILLARI. *Journal of Integrated Education and Research*, 1(4), 238-240.
19. Oglu, K. S. I., Zayniddinovich, Z. R., & Oglu, R. J. K. (2022). Review of the literature on sepsis in calves and measures to prevent it.
20. Davlatov, R., Xujaxonov, S., & Berdiyev, X. (2021). ЭФФЕКТИВНОСТЬ ОФЛОСАНА В ХИМИЧЕСКОЙ ПРОФИЛАКТИКЕ КОЛИБАКТЕРИОЗА КУРИЦ. *Вестник ветеринарии и животноводства (ssuv. uz)*, 1(1).
21. Oglu, K. S. I., & Qizi, K. B. A. (2022). Measures For The Prevention Of Diseases Caused By Disorders Of Bee Nutrition And Feeding Conditions. *Academica Globe*, 3(03), 5-8.
22. Zayniddinovich, Z. R. (2022). REVIEW OF THE LITERATURE ON SEPSIS IN CALVES AND MEASURES TO PREVENT IT. *Emergent: Journal of Educational Discoveries and Lifelong Learning*, 3(1), 1-4.
23. Oglu, K. S. I., Oglu, Y. O. A., & Oglu, J. S. H. (2021). Viral hemorrhagic fever of rabbits ("hemorrhagic pneumonia", "necrotic hepatitis").
24. Subxonovich, H. P., Ergashevna, G. M., & Ogli, K. S. I. (2021). Distribution of helminthosis diseases of one-hoied animals. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 11(10), 880-883.
25. Mahamadaliyeva, M. U., & Agamurodov, O. A. (2021). MEASURES FOR TREATMENT AND PREVENTION OF DISPEPS DISEASE IN CALVES. *Ученый XXI века*, (10 (81)), 12-14.
26. Xo'jaxonov, S., Xo'jaxonova, M., & Davlatov, R. (2023). TOVUQ EYMERIOZINING KIMYOPROFILAKTIKASIDA SAMARALI EYMERIOSTATIKLARNI ANIQLASH. *Евразийский журнал медицинских и естественных наук*, 3(4 Part 2), 75-78.
27. Abduhalilova, G. I., Makhamadaliyeva, M. U., & Khojakhonov, S. I. (2023). FISH BRANCHIOMYCOSIS PREVENTION MEASURES. *International Bulletin of Applied Science and Technology*, 3(4), 247-252.
28. G'aniyev, S. S., & Xo'jaxonov, S. I. (2023). VETERINARIYA LABORATORIYALARIDA SUTNI VETERINARIYA SANITARIYA EKSPERTIZADAN O'TKAZISH TALABLARI. *Scientific Impulse*, 1(8), 586-592.
29. Davlatov, R. (2021). Товуқ колибактериозининг кимёвий профилактикасида антибиотикларнинг самарадорлиги. *Scienceweb academic papers collection*.

30. Davlatov, R. (2021). Бройлер жўжаларида айрим антибиотикларнинг самарадорлик кўрсаткичлари. *Scienceweb academic papers collection*.
31. Xo'jaxonov, S., Xo'jaxonova, M., & Davlatov, R. (2023). PARRANDACHILIK XO 'JALIKLARIDA YUQUMLI KASALLIKLARNI OLDINI OLIH CHORA TADBIRLARI. *Евразийский журнал медицинских и естественных наук*, 3(5), 77-84.
32. Ibrohimov, U. D., Maxamadaliyeva, M. U., & Xo'jaxonov, S. I. (2023). OTLARDA OSHQOZON-ICHAK TIZIMI PATOLOGIYASI. *AGROBIOTEKNOLOGIYA VA VETERINARIYA TIBBIYOTI ILMIY JURNALI*, 2(4), 32-39.
33. G'aniyev, S. S. (2023). VETERINARIYA SANITARIYA EKSPERTIZASI LABORATORIYALARIDA SHAKAR ASALI HAMDA SHAKAR QO'SHILGAN ASAL MAHSULOTLARINI ANIQLASH. *AGROBIOTEKNOLOGIYA VA VETERINARIYA TIBBIYOTI ILMIY JURNALI*, 2(4), 66-69.
34. Davlatov, R. (2023). TO DETERMINE THE EFFECTIVENESS OF ANTIBIOTICS IN PREVENTING CHICKEN COLIBACTERIOSIS BASED ON EXPERIMENTS. *Scienceweb academic papers collection*.
35. Berdievich, D. R. (2023). PARRANDA ZOTLARI. ZOTLAR KLASSIFIKATSIYASI. *Journal of Integrated Education and Research*, 2(4), 74-80.
36. Berdievich, D. R. (2023). BROYLER JO 'JALARI SAQLANADIGAN BINOLARNI TAYYORLASH. *Journal of Integrated Education and Research*, 2(4), 68-73.
37. Doniyorjon o'g, I. U. B. (2023). QO 'YLARDA PARAZITAR KASALLIKLARNI KELIB CHIQUISHINI OLDINI OLIH CHORA TADBIRLARI. *Scientific Impulse*, 1(10), 241-250.
38. Doniyorjon o'g, I. U. B. (2023). OTLARDA MANQA KASALLIGINI DAVOLASH VA UNI OLDINI OLIH CHORA TADBIRLARI. *Scientific Impulse*, 1(10), 251-260.
39. Murodjon Turg'un o'g, A., & Ergashevna, G. O. M. T. (2023). ASALARI KASALLIKLARI VA ULARNI OLDINI OLIH CHORA TADBIRLARI. *Научный Фокус*, 1(1), 122-131.
40. HUDUDIDAGI, V. S. E. L. B., BO, A. S. U. S. M., BAHOLASH, Y., & G'aniyev, S. S. (2023). VETERINARIYA SANITARIYA EKSPERTIZASI LABORATORIYALARIDA BOZOR HUDUDIDAGI ASAL SIFATINI UNDAGI SUV MIQDORI BO 'YICHA BAHOLASH. *Journal of Integrated Education and Research*, 2(10), 46-48.
41. Xo'jaxonov, S. I., & Sharopov, A. U. (2023). IQTIDORLI TALABALAR BILAN ISHLASHNI TASHKIL ETISHNING ASOSIY VAZIFALARI. *Journal of Integrated Education and Research*, 2(8), 33-36.

- 
42. Berdiyevich, D. R. (2023). QORAMOLLAR SISTISERKOZINING KELIB CHIQISHI, DAVOLASH VA OLDINI OLISH CHORA TADBIRLARI. *Ta'lim innovatsiyasi va integratsiyasi*, 10(1), 23-30.
  43. Berdiyevich, D. R. (2023). GELMINTOZLARGA TASHXIS QO 'YISH USULLARI. *Ta'lim innovatsiyasi va integratsiyasi*, 10(1), 3-13.
  44. Berdiyevich, D. R. (2023). PARAZITLARGA QARSHI KURASHISH CHORA-TADBIRLARI. *Ta'lim innovatsiyasi va integratsiyasi*, 10(1), 14-22.
  45. Шамсиддинович, Ф. О., & Эргашевна, Ф. М. (2023). МИКОТОКСИКОЗЛАР ВА УЛАРДАН АЖРАЛАДИГАН ТОКСИНЛАРНИНГ ҲАЙВОНЛАР ОРГАНИЗМИГА ТАЪСИРИ. *Ta'lim innovatsiyasi va integratsiyasi*, 11(2), 108-115.
  46. Murodjon Turg'un o'g, A. (2023). RESULTS OF LABORATORY ANALYSIS OF MEAT SAMPLES SUSPECTED OF TUBERCULOSIS. *Ta'lim innovatsiyasi va integratsiyasi*, 11(2), 95-100.
  47. Ergashevna, G. O. M. T. (2023). TUBERKULYOZGA GUMON QILINGAN QORAMOLLARDAN OLINGAN SUT TARKIBIDAGI MIKROORGANIZMLARNI ANIQLASH. *Ta'lim innovatsiyasi va integratsiyasi*, 11(2), 101-107.
  48. БУЗИЛИШЛАРИ, Ё. (2021). Улуқов Беҳзод Каромат ўғли магистранти, Хўжахонов Шохрузхон Идирисхўжа ўғли магистранти, Жуманазарова Мадина Қахрамон қизи. 5. *MEASURES FOR TREATMENT AND PREVENTION OF DISPEPS DISEASE IN CALVES.*, MU Mahamadaliyeva, OA Agamurodov-Ученый XXI века, 6, 2021-1.